

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 7-сон



Asarning kulminatsion nuqtasida muallif yuksak insoniy tuyg'ular "tor"ini chertib o'tadi. Ayni o'sha jumboqning yechimlari Imberning nafaqat bir qora tanli o'laroq, balki kelgusi avlod uchun dastlabki zarvaraqlardan o'rin olishga loyiq bo'lgan qabila fidoyisining g'ayrioddiy hikoyasini so'zlashi bilan ko'rina boshlaydi. Muallif insoniylikning dastlabki ko'rishini mehmondo'stlik orqali ifodalaydi. Oqbalig qabilasi yerlariga birinchi bo'lib tashrif buyurgan, etlari kiyimlariga yopishib ketgan, norasida go'dakdek nimjon oqtanli kishini gulxan yoniga o'tqazib, po'stinga o'rab, unga osh – non berishadi. Hattoki mehmonning itiga ham huddi odamga ko'rsatiladigandek hurmat va ehtirom ko'rsatishadi, u itni o'zlarining itlari hujumidan himoya qilishadi. Bu yaxshiliklarga oqtanlilar tomonidan munosib javob qaytarilmagan bo'lsada hindular ularni mehmon qilishda va ularga yaxshilik qilishda davom etishardi. "Mehmonlar" esa arziyas buyumlar, ichimliklar evaziga qabila uchun muhim sanalgan ko'plab buyumlar, itlar va hattoki qabila yoshlarini ham olib ketishardi va bu qabilani tanazzulga olib keldi. Ayni shu o'rinda boshqa yozuvchilar asarlarida deyarli uchramaydigan, Jek London alohida muhabbat bilan qalamga oladigan gumanistik motiv etiborimizni tortadi. Yozuvchi hayvonlarga huddi insonlardek munosabatda bo'lishni qat'iy qo'llab quvvatlaydi. "Tez orada otamning bashorati to'g'ri bo'lib chiqdi. Oqbalig qabilasi kurraning eng zo'r itlari bilan dong taratdi. Itlari bilan – odamlari bilan emas."⁶ Yozuvchi hayvonlar insonlarning faqatgina yordamchisi emas, balki do'sti ekanligini hikoyalarida alohida takidlaydi. Jek London shu kabi hikoyalarida hayvonlarga zulm qiluvchi insonlarni yoqtirmasligini ajib mahorat bilan ochib beradi.

Asar qahramoni insoniylikning yana bir yuksak belgisi sanalgan vatanparvarlik hislarini tuyib, qabilani saqlab qolish uchun qo'lidan keladigan barcha choralarni ko'radi hatto, oqtanlilarni o'ldirishgacha qo'l uradi. Asar yakunida esa bu vatanparlik qonunga hilof ekanligini va barcha u ko'rgan choralar noto'g'ri ekanlini anglagan holda qonun oldida munosib javob berish uchun kazarma binosiga, odil sud qarshisiga keladi.

Nemis Tili Darslarida Frazeologik Birliklardan Foydalanish

Ubaydullayev shuxrat narzullayevich

Namangan davlat universiteti

Dotsent

karimova nargiza muxammadjonovna

Namangan davlat universiteti

katta o'qituvchi

Annatatiya: Ushbu maqola chet tilida kompetensiyani o'rgatishda frazeologik birliklarning kommunikativ roliga bag'ishlangan. Xalqaro madaniyat vakillari o'rtasida yuqori sifatli aloqa qilish uchun ma'lum bir minimal leksik birlik yetarli emas. Frazeologik fond, o'z navbatida, chet tili so'z boyligining eng muhim qismidir, chunki frazeologik birliklar har qanday darajadagi aloqa amaliyotiga tobora ko'proq qo'shilmogda. Frazeologik birliklar nafaqat o'quv jarayoni jarayonida, balki o'quvchilar bilimni nazorat qilishda ham qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, til, madaniyat, chet til, muloqot, madaniyatlararo muloqot, matn.

⁶ Jek London. "Muhabbat va Matonat", 2018, 69 - bet



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА УРОКАХ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Убайдуллаев Шухрат Нарзуллаевич

Наманганский государственный университет

Доцент

Каримова Наргиза Мухаммаджоновна

Наманганский государственный университет

Старший преподаватель

***Аннотация:** Данная работа посвящена коммуникативной роли фразеологических единиц в обучении компетентностному владению иностранным языком. Определенного минимума лексических единиц недостаточно для качественной коммуникации между представителями межнациональных культур. Фразеологический фонд, является, в свою очередь, наиважнейшей частью лексики иностранного языка, так как фразеологизмы все больше входят в практику общения на любом уровне. Фразеологические единицы применяются не только в ходе учебного процесса, а также при контроле знаний учащихся.*

***Ключевые слова:** фразеология, язык, культура, иностранный язык, коммуникация, межкультурная коммуникация, текст.*

USE OF PHRASEOLOGISTS IN GERMAN LANGUAGE LESSONS

Ubaydullayev Shuxrat Narzullayevich

Namangan State University

dotsent

Karimova Nargiza Muxammadjonovna

Namangan State University

Senior teacher

***Abstract:** This work is devoted to the communicative role of phraseological units in teaching competence in a foreign language. A certain minimum of lexical units is not enough for high-quality communication between representatives of international cultures. The phraseological fund is, in turn, the most important part of the vocabulary of a foreign language, since phraseological units are increasingly included in the practice of communication at any level. Phraseological units are used not only in the course of the educational process, but also in the control of students' knowledge.*

***Key words:** phraseology, language, culture, foreign language, communication, intercultural communication, text.*

So'nggi paytlarda lingvodidaktlarning diqqat-e'tibori frazeologiyani ilmiy o'rganishga qaratilmoqda. Chunki, frazeologiya – bu xalqning tarixi, urf-odatlari, madaniyati, qadriyatlar tizimi, e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lgan eng boy til hazinasi hisoblanadi. Frazeologizmlarda til va etnik madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Frazeologik birliklarni o'rganish (bundan keyin – FB) fikrning ravshanligi va obrazlilikiga, nutqning ravon va aniqligiga, turli janrdagi matnlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Frazeologiya bilan yaqindan tanishish va uning go'zalligidan bahra olish tilni mukammal o'zlashirishning muhim shartlaridan biridir. Nutqda frazeologik birliklardan to'g'ri foydalanish chet til kommunikativ kompetensiyasining shakllanganlik darajasining yuqori ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.



Ushbu maqolaning maqsadi "Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talaba/magistrlarni tayyorlashda, nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish jarayonida nemis frazeologiyasini bosqichma-bosqich o'qitishni rivojlantirishga qaratilgan. Chet tilda FB fikran bog'lanish (assimilyatsiya) hosil qilish, frazeologiyani o'rganish ma'lum bir sxema, tizim bo'yicha amalga oshirilsa samarali natijaga olib keladi. Frazeologik ishlarning ayniqsa konstruktiv shakli - bu FBning bosqichma-bosqich rivojlanishi demakdir.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi sifatida: nemis frazeologiyasiga oid ilmiy ishlar tashkil etdi (qarang: Reyxshteyn 1980); chet tillarni o'qitishda loyiha (proyekt) metodidan foydalanish (qarang: Qishki 1993; Paxomova 2003); ta'lim jarayoniga Evropa tillari portfelini joriy etish (qarang: Galskova 2000; Leontyeva 2003) va boshqalar. Amaliy tadqiqot materiali bo'lib nemis davriy nashrlari (Markt, Süddeutsche Zeitung, Frankfurter Allgemeine, Spiegel), shuningdek zamonaviy nemis tilining frazeologik lug'atlari hizmat qildi (qarang: Duden 1996; Gyorner 1984; Roxrich 1991; Schemann 1992).

Nemis frazeologiyasi bo'yicha taklif qilinayotgan trening bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda talabalar nemis tili frazeologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, nemis FBlarining kelib chiqish manbalari bilan tanishtirildi, shuningdek, turli janrlardagi matnlarda frazeologiyaning asosiy vazifa (funktsiya)lari ochib berildi. Birinchi bosqichda nemis tili frazeologiyasi to'g'risida boshlang'ich bilimlar shakllantirildi, talabalar nemis tilining frazeologik fondining xilma-xilligi, nutqdagi FB vazifasi to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'ldilar. Tanishish bosqichida – quyidagi reja bo'yicha suhbatlar o'nkazildi:

1. FB kelib chiqish tarixi va u ifodalaydigan mazmun ochib berildi. Bu talabalarda aniq tasavvur hosil qilishga xizmat qildi. Frazeologizmlar, ya'ni shaffof obrazli iboralar oldin egallagan bilimlarga asoslandi. Natijada talabalarning "ichki dunyosi"ni o'sishiga erishildi. Ma'lum bir FB so'z birikmasi orqali ifodalangan bo'lsa, ba'zilar vizual tasvirlar va hatti-harakatlar orqali ko'rsatib berildi: masalan, *eine weiße Weste haben* – benuqson, obro'ga ega.

2. Nemis tilida aniqligi, obrazliligi va ifodaliligi bilan ajralib turadigan ko'plab FB mavjud. O'qituvchi FBlarga misollar keltirishda talabalarning yosh xususiyati va til bilish darajasini inobatga olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Taqdim etilayotgan butun kombinatsiyani metafora orqali qayta ko'rib chiqish natijasida qanday obrazlar yaratilishini tushuntirib borish talabalarning linqvokulturologik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qildi: masalan, *jm den roten Hahn aufs Dach setzen* – o't yoqdi, *sich weiß waschen (brennen) wollen* – o'zini oqlashga urinmoq, *einen Mohren weiß waschen* – imkonsiz narsaga erishish', *alles durch die schwarze Brille sehen* – juda noumid bo'lish.

Ko'pgina FB mualliflari taniqli nemis yozuvchilari va shoirlari hisoblanadi. Masalan, T.Manning "Buddenbruks" romanida "yolg'izlik va g'amginlik" ma'nosini ifodalashda *auf den Steinen sitzen* FB qo'llangan. O'qituvchi, ushbu FB bilan leksikografik manbalarda ko'p qo'llanadigan qonotli iboralardan misollar keltiradi: masalan, *die grüne Insel; blaue Ferne; die blaue Stunde*.

3. Ko'pgina FB nemis xalqining tarixi va hayotini aks ettiradi. Birinchidan, FB etnomadaniy ahamiyatga ega bo'lib, ular tarkibiga toponim komponentli FB ham kiradi, chunki tili o'rganilayotgan mamlakatlarning geografik joylashuvi haqidagi ma'lumotlar shu tilda so'zlashuvchilarning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday FBlarga eng muhim



geografik ob'ektlarning (mamlakat nomlari, uning poytaxti) nomlari kiradi: masalan, *Herz Deutschlands, Berliner Blau, Berliner Weiße*.

4. Katta miqdordagi FBlar boshqa tillardan nemis tiliga o'zlashgan bo'lib, ushbu turdagi FBlar xalqaro hisoblanadi: masalan, *das weiße Haus* – oq uy (prezident qarorgohi).

Nemis tili frazeologiyasi doimo rivojlanib boradi va nutqni rivojlantirishning ajoyib manbai hisoblanadi. Shunday qilib, o'qituvchilar til o'rganuvchilarning yoshiga mos va til bilish darajasini inobatga olgan xolda FBlardan foydalanishlari mumkin.

Frazeologik ishlar jarayonida o'quvchilarga FBning og'zaki va yozma nutqda qanday rol o'ynashini ko'rsatish muhimdir. Shu munosabat bilan FB funksiyalari haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Aloqa vositasi sifatida til quyidagi vazifalarni baradi: nominativ, kommunikativ va kumulyativ. Barcha so'z birikmalari (predikativlardan tashqari) nominativ funktsiyani bajaradi – ular nomlash vositasi, ob'ekt nomi, harakat, hodisa, xususiyat. FBlar bir xil nominativ funktsiyalarda ham qo'llaniladi

Kommunikativ funktsiya (xabar, savol, undov vazifasi) jumlar orqali amalga oshiriladi. Ular izchil fikrni ifoda etish, fikr almashish, aloqa vositasidir. Kommunikativ funktsiyada paremiyalar ishlatiladi: sintaktik tuzilishiga ko'ra gapning shakliga ega bo'lgan maqollar va so'zlar. Biroq, barqaror og'zaki komplekslarning roli faqat nominativ yoki kommunikativ funktsiyalar bilan chegaralanmaydi. Nutqda FBlar qo'shimcha funktsiyalarni ham bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Гальскова Н. Д.** Языковой портфель как инструмент оценки и самооценки учащихся в области изучения иностранных языков // Иностранные языки в школе. 2000. – № 5. –С. 6-11.

2. **Зимняя И. А.** Проектная методика обучения английскому языку // Иностранные языки в школе. 1993. –№ 3. –С. 9-15.

3. **Леонтьева Т. П.** Белорусская модель европейского языкового портфеля: перспективы разработки и внедрения.–Беларусь. 2003.–№ 3.–С. 3-.

4. **Пахомова Н. Ю.** Метод учебного проекта в образовательном учреждении: пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – М., 2003. –С.56-62.

5. **Райхштейн А. Д.** Сопоставительный анализ русской и немецкой фразеологии. М., 1980. Duden. Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band XI. Mannheim; Leipzig; Wien; Zürich, 1996.

6. **Görner H.** Redensarten. Kleine Idiomatik der deutschen Sprache. Leipzig, 1984.



10.00.00
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

47	Семантика падежа через призму толкования актантной структуры глагола в русском и узбекском языках. Абдурахманов Ф.И	263
48	Изучение категории вида русского глагола в классах с узбекским языком обучения как лингвометодическая проблема Бабажанова М.Т	270
49	On german-russian military sphere dictionaries Имяминова Ш, Казакова Л.	276
50	Jek London asarlarida insonparvarlik g'oyalarining ifodalanishi Bahriddinov M.M	283
51	Nemis tili darslarida frazeologik birliklardan foydalanish Ubaydullayev Sh.N, Karimova N.M	286
52	Mark Tven Yumoristik asarlari tarjimasida murojaat shakllarining berilishi Толибжанов Б.М	290
53	Ижтимоий -касбий фаолиятига кўра шахс номланишини ифодаловчи фразеологик бирликларининг тил сатҳларидаги (Лексик сатҳ) семантик таҳлили Ҳамидов Б.А	294
54	Бадий асарлар матнида фразеологик бирикмалар таржимасидаги муаммолар Арастумян Я.Ю	300
55	Аъзам ўқтам ижодининг ўзбек адабиётшунослигида ўрганилиши Раимова С.З	308
56	“Qorako‘z majnun”yoxud vafo timsoli haqida hikoya Jo‘rabojeva S.I.....	313
57	Лингвокультурологическая интерпретация фразеологических единиц на русском языке в иноязычной аудитории Азизова Н.Б	316
58	Ўзбек адабиётига бир назар. Будикова М. Х	322
59	“Бобурнома” Ҳамид Далов таржимасида Абдурахмонова Д.К	325
60	Есенин и «восточная тема» Чжен Е. В, Хусниддинов Х.Х	329
61	Diskurs tipologiyasi va yuridik diskursning asosiy xususiyatlari Jumaniyozova N.A	335
62	Медицинская тематика в латинских афоризмах Икрамова Х М	340